



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 22-iyul

350-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 16-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni xorijiy tillarga o‘qitish tizimi samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024- yil 27-iyundagi PQ-239-son qarori ijrosini ta‘minlash haqida” 314-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida.

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 16-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni xorijiy tillarga o‘qitish tizimi samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 27-iyundagi PQ-239-son qarori ijrosini ta‘minlash haqida” 314-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta‘minlash madsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 16-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni xorijiy tillarga o‘qitish tizimi samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil-iyundagi PQ-239- son qarori ijrosini ta‘minlash haqida” 314-6-0-Q/24 –sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-iyundagi PQ-239-son qarori bilan: Yoshlar ishlari agentligi zimmasiga: yoshlarni xorijiy tillarga o‘qitish jarayonlarini takomillashtirish, talab yuqori bo‘lgan chet tillarini mukammal o‘zlashtirish uchun sharoitlarni kengaytirish; xorijiy tillarni o‘qitish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar hamda nodavlat ta‘lim tashkilotlari (keyingi o‘rinlarda - xususiy o‘quv markazlari), ushbu yo‘nalishda faoliyat yurituvchi boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash, sohadagi muammolarni muntazam ravishda tahlil qilish va ularning yechimi bo‘yicha takliflar tayyorlash; xususiy o‘quv markazlari reytingini shakllantirish hamda reytingda yuqori o‘rinni egallaganlarni rag‘batlantirish; yoshlar orasida kasb-hunar va xorijiy tillarni o‘rganishni targ‘ib qilish, ushbu yo‘nalishdagi ijtimoiy loyihalar, ko‘rik-tanlov va olimpiadalarni tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha funksiyalar yuklatilganligi; imtihon topshirish xarajati qoplanadigan xalqaro imtihon tizimlari bo‘yicha ingliz, nemis, fransuz, koreys, xitoy va yapon tillaridan kamida C1 yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi sertifikat olgan yoshlarni imtihon topshirish xarajatlarini kompensatsiya qilishga qo‘shimcha ravishda Yoshlar ishlari agentligiga ajratilgan mablag‘lar doirasida o‘qish xarajatlarini qoplash uchun bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida bir martalik moddiy rag‘batlantirish tizimi joriy etilishi; 2024-yil 1-sentabrdan boshlab 2027-yil 1-yanvarga qadar yoshlarning nemis, fransuz, koreys, xitoy va yapon tillari bo‘yicha xalqaro imtihon tizimlarida imtihon topshirish xarajatlari qoplab berilishi uchun ular tomonidan to‘planishi lozim bo‘lgan ballning (sertifikat darajasining) minimal ko‘rsatkichi bir pog‘ona pasaytirilishi hamda mazkur xarajatlar Yoshlar ishlari agentligiga ajratilgan mablag‘lar doirasida qoplanishi belgilanganligi; umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarining sinf xonalarini ta‘lim jarayonidan bo‘sh vaqtda kasb-hunar va xorijiy tillarni o‘qitish faoliyatini amalga oshirish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar asosida tekin foydalanish huquqi bilan xususiy o‘quv markazlariga berishga ruxsat etilishi; bunda tegishli umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarining ro‘yxati Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi tomonidan

tasdiqlanishi, shuningdek, tekin foydalanish to'g'risidagi shartnoma balansda saqlovchi va xususiy o'quv markazi o'rtasida tuzilishi belgilab qo'yilganligi; 2024-2026-yillarda oliy ta'lim tashkilotlarining xorijiy til filologiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha 3 va 4-kursda tahsil olayotgan hamda kamida C1 darajadagi sertifikatga ega talabalariga umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida o'qituvchi sifatida mehnat faoliyatini amalga oshirishiga ruxsat etilishi; A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlarida ingliz tilidan tashqari boshqa xorijiy tillar bo'yicha ham bosqichma-bosqich pedagoglarni qayta tayyorlash kurslari tashkil qilinishi e'tiborga olinsin.

3. Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (E.Ermirzayev) hamda Yoshlar ishlar bo'limi (M.Mamasobirov) 2024/2025-o'quv yilidan boshlab ta'lim muassasalarining chet tili fani bo'yicha darslarida videomahsulotlardan, shu jumladan "Ibrat farzandlari" platformasidan keng foydalanishni yo'lga qo'ysin.

4. Yoshlar ishlari bo'limi (M.Mamasobirov) 2024-yil 1-oktabrga qadar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-iyundagi PQ-239-son qarorining 5-bandi "a" kichik bandida nazarda tutilgan choralarni amalga oshirish maqsadida olis va chekka hududlar ro'yxatini tasdiqlasin hamda rasmiy veb-saytlarda e'lon qilsin.

5. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi (Z.Axmadjonov) xorijdagi ko'makka muhtoj bo'lgan yoshlar muammolarini hal etish, ularni Vatanga qaytarish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, shu jumladan kasb-hunar va xorijiy tillarga o'qitish hamda bandligini ta'minlash choralarini ko'rsin.

6. Yoshlar ishlari bo'limi (M.Mamasobirov) bolalarni Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ota-ona, oila va kattalarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularda tabiatni asrab-avaylash tuyg'ularini shakllantirishga qaratilgan asarlarni yaratish, ularni chop etish va ommalashtirish choralarini ko'rsin.

7. Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib Yoshlar ishlari bo'limi boshlig'i M.Mamasobirov, Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i E.Ermirzayev belgilansin.

8. Mazkur qarorning ijrosiga mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi v.v.b



B.Muydinov